

YASHIL

IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№10

Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[®]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

OpenAIRE

ROAD

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

BASE

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

Crossref



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

2025



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Elektron nashr. 349 sahifa.

E'lon qilishga 2025-yil 1-oktyabrda ruxsat etildi.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Buzrukhonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Utayev Uktam Choriyeich, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Ochilov Farkhod, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlal Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

QAYTA TIKLANUVCHI YASHIL ENERGIYA: BARCHA UCHUN MUHIM MASALA.....	13
Muxiddin Kalonov	
MOLIYAVIY INNOVATSIYALAR: IQTISODIY MOHIYATI, QO'LLANILISHI VA RIVOJLANISHI.....	19
Quliyev Begimqul Melikovich	
SAVDO KORXONALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA STATISTIK TAHLIL USULLARIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.....	24
Sabirova Oysuluv Shonazarovna	
KORXONANING MEBEL MAXSULOTLARI BOZORIDAGI O'RNINI KENGAYTIRISH USULLARI	30
Musayeva Shoirazimovna	
IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDA INVESTITSIYA KO'RSATKICHLARI TIZIMINING FUNKTSIONAL JIHATI.....	35
Alabayev Sobitxon	
MAMLAKATIMIZDA MAHSULOTLARNING MUVOFIQLIGINI BAHOLASH AMALIYOTI.....	40
Zakirov Ansabxon Akaidinovich	
ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНЫХ ОБЛИГАЦИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	48
Саидахмедова Аида Мирзаевна	
KORXONALAR FAOLIYATIDA DEBITOR VA KREDITOR QARZDORLIKNI BOSHQARISH	55
Mirzayev Ozod Furkatovich	
AHOLI PUL DAROMADLARI VA HUDUDIY IQTISODIY RIVOJLANISH KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI EKONOMETRIK TAHLIL.....	59
Qodirov Farrux Ergash o'g'li	
BUDJET RESURSLARI SHAKLLANISHIDA HUDUDNING SOLIQ SALOHİYATINI OSHIRISH VA MOLIYAVIY BARQARORLIK.....	64
Yuldashev Adhamjon Axadjonovich	
SANOAT KORXONALARI IQTISODIY RIVOJLANISHI TUSHUNCHASIGA NAZARIY YONDASHUVLAR.....	69
Muydinov Xusniddin Nuriddin o'g'li	
МЕТОДИКА УПРАВЛЕНИЯ ФИНАНСОВЫМИ ПОТОКАМИ В СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЕТА	73
Минутдинова Лилия Тагировна, Машарипов Озод Алимович	
ГАРМОНИЗАЦИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН В СООТВЕТСТВИИ С МСФО	78
Абдужалилова Дилноз Абдусаттаровна	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR YORDAMIDA SMART TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARBLIGI	84
Sobirjonov Muxiddin Toxirjon o'g'li	
TO'LOVGA QOBILIYATSIZLIK HOLATIDAGI KORXONALARDA TUGATISH BALANSINI TUZISH.....	90
Nabiyev Gofurjon Nosirjon o'g'li	
O'ZBEKISTON SANOATINING "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TAYOTGANLIGI: IMKONIYATLAR VA CHEKLOVLAR	96
Habibullayev Oybek Asliddin o'g'li	
YASHIL IQTISODIYOT KONTSEPTSIYASINING EVOLYUTSIYASI VA ILMIY-NAZARIY YONDASHUVLAR.....	102
Allayarov Suxrob Rustamovich	
O'ZBEKISTONDA TO'G'RIDAN-TO'G'RI CHET EL INVESTITSIYALARINING MILLIY IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHDAGI ROLI	107
Raxmatov Adxam Itolmasovich, Boynazarova Matluba Xatamovna	



HUDUDIY IJTIMOY TENGLIK VA QASHSHOQLIKNI YUMSHATISHDA MEHNAT RESURLARI OMILLARI.....	114
Durumov Temur G'olibovich	
TRANSPORT TARMOG'I VA MILLIY IQTISODIYOTNING ASOSIY TARMOQLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI MODELLASHTIRISH (SURXANDARYO VILOYATI MISOLIDA)	121
Turayev Baxtiyor Ergashevich, Aymatov Sirojiddin To'raqul o'g'li	
РОЛЬ ЭНЕРГЕТИКИ В ФОРМИРОВАНИИ УСТОЙЧИВОГО РОСТА ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	134
Нигматуллаева Гулчехра Нуруллаевна	
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI VA UNDA SIFAT MENEJMENTINING ROLI.....	139
Yuldashev Iskandar Bahromovich	
YER QA'RIDAN FOYDALANUVCHILARGA SOLIQ SOLISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	145
Zoxidov Ismatjon Yunusjon o'g'li	
RAQAMLI TRANSFORMATSIYA SHAROITIDA TURIZM INDUSTRIYASIDA INNOVATSION BIZNES-MODELLAR.....	151
Shaxinabonu Choriyeva	
AVTOTRANSPORT – EKSPEDITSIYA XIZMATLARI BOZORIDA MARKETING KONTSEPSIYASI	157
Ergasheva Mukhabbat Abdusamatovna	
“YASHIL” ENERGIYA ISHLAB CHIQUVCHI KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI SOLIQQA TORTISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	163
Toshtemirov To'liqin Toirjonovich	
DAVLAT IQTISODIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA SIYOSIY INSTITUTLARNING ROLI VA UNI KUCHAYTIRISH MEKANIZMLARI.....	166
O. Nurmuradov	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI BANK TEXNOLOGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSLARI	171
Meyliqulov Shaxboz Xolmamat o'g'li	
СВЯЗНОСТЬ НАЦИОНАЛЬНЫХ И РЕГИОНАЛЬНЫХ СТРАТЕГИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ: ВЫЗОВЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ.....	176
Ташматов Гайрат Ровшанович, Содиков Авазбек Мадаминович	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI TURIZM SOHASINI RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....	183
Zarikeyeva Miyasar Maratovna	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING RIVOJLANISH TENDENSIYASI.....	187
Saidrahmatova Zuhraxon Saidazim qizi	
O'ZBEKISTON KONCHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISH VA INNOVATSION XAVFLARNI KAMAYTIRISH STRATEGIYALARI	192
Kurbanova Mehriniso Nematjanovna	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI.....	196
Xuramov Zafar Rajabaliyevich	
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASSTERLARIDA XOMASHYO TA'MINOTI BARQARORLIGINI TA'MINLASHNING XORIJ DAVLATLAR TAJRIBASI.....	201
Zakirov Abduazim Abdurashidovich	
НОВЫЙ ЭТАП ПРИМЕНЕНИЯ РЫНОЧНЫХ МЕХАНИЗМОВ В ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ.....	206
Махкамов Ибраим	
O'ZBEKISTONDA SUG'URTA BOZORINING RIVOJLANISH TENDENTSIYALARI.....	213
Kushmuradov Oman, Ismoilov Sherzod Ismoil o'g'li	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA MILLIY IQTISODIYOT NAZARIYASI.....	217
Mo'ydinov Xurshidbek Abdullayevich	
DORIVOR O'SIMLIKLARNI QAYTA ISHLASHNING HOZIRGI HOLATI VA MUAMMOLARI	221
Usmonov Mirg'ulom Xoshim o'g'li	



BARQAROR IQTISODIY O'SISHGA YERISHISHDA SUN'IY INTELLEKT TIZIMLARINI QO'LLASH METODOLOGIYASINI TAKOMILASHTIRISH (XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI MISOLIDA)	227
Nasrulloev Hayotjon Xabibulloevich	
НЕЙРОИНТУИТИВНЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И ЕГО РОЛЬ В УПРАВЛЕНИИ РИСКАМИ В БИЗНЕСЕ.....	233
Ягудин Дмитрий Рустамович	
RESURLARNI SOLIQQA TORTISH AMALIYOTINING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI VA ULARNING MILLIY SOLIQ TIZIMIDA QO'LLASH MASALALARI	240
Nasimdjanoov Yunusjon Zoxidovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN QO'LLANILAYOTGAN SOLIQQA TORTISH MEXANIZMLARI	246
Akbarov Akramjon Ibragimzhonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA "YASHIL" MARKETINGNI JORIY ETISHNING DOLZARB JIHATLARI	250
Bazarova Fayyoz Tuxtamurodovna	
INSON KAPITALI VA IQTISODIYOTNING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI.....	255
Muzaffar Raximov	
UY-JOY KOMMUNAL XO'JALIGINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI.....	259
Odamboyev Oybek Ravshanbek o'g'li	
INTERNATIONAL ORGANIZATIONS' APPROACHES TO ATTRACTING INVESTMENT IN HUMAN CAPITAL	268
Akhmadaliyeva Nikholakhon	
RAQAMLI PLATFORMALAR ORQALI KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI.....	273
Vohobov Hikmatillo Ma'mirjon o'g'li	
ФОРСАЙТ И ЭКОНОМИЧНЫЕ ИННОВАЦИИ КАК ДРАЙВЕРЫ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОРГОВЛИ САМАРКАНДА	280
Тохинова Гуллола Миркамолевна	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNI BOSHQARISHDA KASB-HUNAR TA'LIMI BITIRUVCHILARINING O'RNI	287
Toshpulatov Sherzod Xaydarkulovich	
DIGITAL TECHNOLOGIES IN ECOTOURISM: INNOVATIVE STRATEGIES FOR ADVANCING GREEN TOURISM	292
Barno Erkayeva	
AGROTURIZM SOHASINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	296
Baymuradova Iroda Shermamatovna, Mardonova Zarifa Numonjonovna	
DAVLAT BUDJET NAZORATI TIZIMINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI	301
B.Sh.Mirzayev	
YOSHLAR BANDLIGIDA KO'NIKMALAR NOMUTANOSIBLIGI MUAMMOLARI VA YECHIMLARI.....	307
Raxmatxo'jayev Axrorxo'ja Akmal o'g'li	
TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARINING EKSPORT SALOHİYATINI TAHLIL QILISH VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARINI BAHOLASH.....	311
Oqboyev Alisher Rasuljanovich	
РЕИНЖИНИРИНГ БИЗНЕС-ПРОЦЕССОВ И ИХ РОЛЬ В РАЗВИТИИ БАНКОВСКОГО БИЗНЕСА.....	317
Рахимходжаева Нодира Саидахраловна	
QISHLOQ XO'JALIGI TA'MINOT ZANJIRI JARAYONLARINING HOZIRGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	323
Ermonov Farrux	
O'ZBEKISTONDA RAQAMLI IQTISODIYOTNI SHAKILLANTIRISH JARAYONIDA MOLİYAVIY NAZORATNI INNOVATSION TA'LIM YO'NALISHLARINI YO'LGA QO'YISH ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	329
Turg'unov Bahtiyor Nuriddinovich	



MARKAZIY OSIYODA SUV RESURLARINI BOSHQARISH VA HAMKORLIKNING DOLZARB MASALALARI	334
Amanbaev Amanali Orazbaevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YANGI TURDAGI LOGISTIKA XIZMATLARINING USLUBIY ASOSLARI.....	338
Z. Teshayev	
O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH.....	343
Suyunov Asror Baxtiyorovich	



O'ZBEKISTON AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA XIZMATLARI SOHASINING AMALDAGI HOLATINI TAHLIL QILISH



Suyunov Asror Baxtiyorovich

Toshkent axborot texnologiyalari universiteti tadqiqotchisi, PhD

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda O'zbekiston axborot-kommunikatsiya xizmatlari sohasining hozirgi holati tahlil qilingan. Unda sohaning rivojlanish jarayonlari, xizmatlar sifati va ko'lam, shuningdek, mavjud muammolar hamda ularni bartaraf etish yo'llari o'rganilgan. Tadqiqot axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining iqtisodiyotda, davlat boshqaruvida va jamiyat hayotida tutgan o'rni hamda ularning modernizatsiya jarayonlaridagi ahamiyatini yoritib beradi.

Kalit so'zlar: axborot-kommunikatsiya xizmatlari, tahlil, xizmat sifati, soha rivojlanishi, texnologiyalar.

Abstract: This study analyzes the current state of the information and communication services sector in Uzbekistan. It covers the development of the sector, improving the quality and scope of services, as well as existing problems and solutions. The research highlights the importance of information and communication technologies for the economy and society.

Key words: information and communication services, sector analysis, service quality, sector development, technologies.

Аннотация: Данное исследование анализирует текущие состояние сферы информационно-коммуникационных услуг в Узбекистане. Рассматриваются вопросы развития отрасли, повышение качества и объема услуг, а также существующие проблемы и пути их решения. Исследование подчеркивает значимость информационно-коммуникационных технологий для экономики и общества.

Ключевые слова: информационно-коммуникационные услуги, анализ сферы, качество услуг, развитие сферы, технологии.

KIRISH

Axborot-kommunikatsiya xizmatlari sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyoti va jamiyat hayotida kechayotgan o'zgarishlarni tezlashtirishda muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston so'nggi yillarda bu yo'nalishda raqamli infratuzilmani yaxshilash, xizmatlar sifatini oshirish va raqamli imkoniyatlarni kengaytirish borasida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirmoqda. Shu sababli mamlakatda axborot-kommunikatsiya sohasining hozirgi holatini chuqur tahlil qilish, uning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash hamda istiqbolli rivojlanish yo'nalishlarini belgilash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

So'nggi yillardagi O'zbekiston hukumati qarorlari va strategik dasturlarida axborot-kommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirish ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Jumladan, "Elektron hukumat" tizimi doirasida raqamli xizmatlar soni va sifatini oshirish, mobil internet qamrovini kengaytirish hamda axborot xavfsizligini ta'minlash borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, sohaning moliyaviy barqarorligini mustahkamlash va xorijiy investitsiyalarni jalb etish iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda.



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda O'zbekistonning raqamli iqtisodiyotini rivojlantirish, xususan, axborot-kommunikatsiya xizmatlari sektorini modernizatsiya qilish yo'nalishida bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Sh. Gulyamov va hamkasblari "Experience of Development of Digital Technologies in Uzbekistan" nomli maqolasida mamlakatda raqamli transformatsiya bosqichlarini tahlil qilib, "Bir davlat eshigi" tashabbusi orqali elektron hukumat xizmatlarining integratsiyasi va IT infratuzilmaning shahar hamda qishloq hududlarida kengayish jarayonlarini yoritadi. Mualliflar davlat xizmatlari samaradorligini oshirishda davlat va xususiy sektor hamkorligi muhim omil ekanini ta'kidlaydilar.

IZ Rasulovich "Enhancing the Efficiency of Digital Services in Uzbekistan's Telecommunications Sector" nomli maqolasida telekommunikatsiya sohasida raqamli xizmatlar samaradorligini oshirish usullarini o'rganib chiqadi. U operator xizmatlarini raqamli platformalarga o'tkazish, mijoz interfeyslarini integratsiyalash hamda raqobatni kuchaytirish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, raqamli xizmatlarning keng joriy etilishi telekommunikatsiya sohasida xizmat sifati va foydalanuvchi tajribasini yaxshilaydi.

"Predictive Analysis of ICT Service Exports within the Logistics Sector: A Case Study Pertaining to Uzbekistan" nomli tadqiqotda mualliflar ARIMA modeli asosida logistika sohasidagi ICT xizmatlar eksportining kelajak prognozlarini ishlab chiqadilar. Ushbu ishning ilmiy ahamiyati shundaki, u O'zbekistonning raqamli xizmatlar eksportini diversifikatsiya qilish strategiyasi uchun empirik asos yaratadi. Biroq tadqiqotning zaif tomoni — modellar faqat tarixiy tendensiyalarga asoslangan bo'lib, siyosiy yoki tashqi omillarni hisobga olmaydi.

"The Role of Investment in Accelerating Digital Economy in Uzbekistan" nomli maqolada mualliflar investitsiyalar bilan ICT sektori o'sishi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qiladilar. Tadqiqotda investitsiya oqimlarining raqamli infratuzilma rivojlanishiga ta'siri, ijobiy impulslari hamda kechikkan samaralari tahlil qilingan. Mualliflar fikricha, investitsiya siyosatining samaradorligi ICT sohasining modernizatsiya sur'atlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

OECD tomonidan tayyorlangan "Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan" hisobotida O'zbekiston xususiy sektorida raqamli ko'nikmalarning yetishmasligi tahlil qilinadi. Hisobotda xodimlar va menejerlar orasida raqamli savodxonlik bo'yicha bo'shliqlar mavjudligi, ularni bartaraf etish uchun davlat tomonidan rag'batlantiruvchi mexanizmlar zarurligi qayd etiladi. Ushbu hisobot siyosat ishlab chiquvchilar uchun amaliy tavsiyalar bilan ahamiyatlidir, biroq unda mikro darajadagi tahlil va hududiy tafovutlar yetarli yoritilmagan.

Tadviser portali tahlilida O'zbekistonning ICT bozori tuzilmasi, telekommunikatsiya, IT xizmatlar, tizim integratsiyasi va xususiy sektor ishtiroki bo'yicha so'nggi tendensiyalar yoritiladi. Bu manba amaliy ma'lumotlarga boy bo'lsa-da, akademik tahlil nuqtayi nazaridan metodologik jihatdan chuqurlashmagan.

"Genus" jurnalida chop etilgan "The Growth of ICT Indicators in the Digital Economy of Uzbekistan" maqolasida mualliflar raqamli iqtisodiyot indikatorlari (internet penetratsiyasi, mijoz xizmatlari hajmi va boshqalar) hamda iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlikni statistik usullar orqali o'rganadilar. Tadqiqotda korrelyatsion tahlil asosida ICT ko'rsatkichlari bilan iqtisodiy rivojlanish o'rtasida mustahkam ijobiy bog'liqlik mavjudligi isbotlangan.

Shuningdek, "Digital Transformation Scoreboard in Uzbekistan" hisobotida mamlakat hududlari bo'yicha axborot-kommunikatsiya xizmatlarining yalpi ichki mahsulotdagi ulushi va dasturiy xizmatlar sektori rivojlanish dinamikasi yoritilgan. Ushbu hisobot milliy darajadagi statistik ma'lumotlarni jamlab, hududiy tafovutlarni aniqlash uchun empirik asos yaratadi, biroq u ilmiy maqola darajasidagi metodologik tahlilga ega emas.

Umuman olganda, keltirilgan manbalar O'zbekistonda raqamli transformatsiya, ICT infratuzilmasi, investitsiya oqimlari, raqamli xizmatlar eksporti va inson kapitali salohiyati bo'yicha izchil ilmiy tahlil olib borayotganini ko'rsatadi. Ular mamlakatda raqamli iqtisodiyotning rivojlanish sur'atlari va istiqbollari baholashda nazariy hamda amaliy asos bo'lib xizmat qilmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda asosiy ma'lumotlar rasmiy manbalar, hukumat dasturlari, statistika hisobotlari va soha mutaxassislari fikrlariga asosanib to'plandi. Tadqiqotda statistik tahlil, solishtirma tahlil, hujjatlarni o'rganish hamda soha vakillari bilan suhbat usullari qo'llanildi. Ishning maqsadi — O'zbekistonda axborot-kommunikatsiya xizmatlari sohasining xizmatlar ko'lamini, sifat standartlari va infratuzilma holatini baholash, mavjud muammolarni aniqlash hamda ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

O'zbekiston axborot-kommunikatsiya xizmatlari sohasi so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi va bundan keyingi bosqichlarda ham keng rivojlanish istiqbollari mavjud. Raqamli infratuzilma kengaytirilib, xizmatlar sifati yaxshilandi. Xususan, 2016–2021-yillar davomida amalga oshirilgan keng ko'lamli islohotlar



natijasida axborot-kommunikatsiya xizmatlari hajmi ikki barobardan ortiq o'sdi: 2016-yilda 5,2 trillion so'mni tashkil etgan ko'rsatkich 2020-yilda 12,9 trillion so'mga yetdi. Ushbu o'sish sohaga bo'lgan iqtisodiy talabning ortganini va uning mamlakat iqtisodiy hayotidagi ahamiyatining oshganini ko'rsatadi.

Texnologik infratuzilmani rivojlantirish yo'nalishida qator amaliy chora-tadbirlar amalga oshirildi. Xalqaro internet tarmog'iga ulanishning o'tkazuvchanlik qobiliyati keskin oshirildi, bu esa xizmat narxlarining arzonlashuviga olib keldi. Mobil aloqa tarmog'ining qamrovi respublika bo'yicha 98 foizga yetkazildi, mobil internet tezligi esa 1,5 barobarga oshdi. 2020-yil oxiriga kelib mobil aloqa abonentlari soni 25,9 millionni tashkil etgan bo'lsa, qo'shimcha tayanch stansiyalar o'rnatilishi natijasida bu ko'rsatkich yanada oshib bormoqda.

Yuqori tezlikdagi simli va simsiz internet qamrovi kengaytirilib, 24 ming kilometrdan ortiq optik tolali aloqa liniyalari qurildi. Natijada 2,9 milliondan ortiq uy xo'jaliklari va ijtimoiy obyektlar keng polosali internet bilan ta'minlandi. Bu esa aholining raqamli xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytirdi.

"Elektron hukumat" tizimi yanada jadal rivojlantirilib, davlat xizmatlari raqamlashtirilmog'da. Bu jarayon byurokratik to'siqlarni kamaytirish, fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni soddalashtirish hamda boshqaruv samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Shunga qaramay, axborot-kommunikatsiya xizmatlari sohasining milliy iqtisodiyotdagi ulushi hozircha taxminan 3,8 foizni tashkil etadi, ammo bu ko'rsatkich kelgusi yillarda sezilarli o'sish salohiyatiga ega. Xalqaro reytinglarda O'zbekistonning raqamli rivojlanish darajasi tobora mustahkamlanib borayotgani, sohani tizimli asosda rivojlantirish orqali mamlakatni raqamli iqtisodiyotning ilg'or ishtirokchilaridan biriga aylantirish imkonini beradi.

Hozirda ayrim hududlarda internet qamrovi va xizmatlar sifati bo'yicha farqlar saqlanayotgan bo'lsa-da, bu yo'nalishda keng ko'lami infratuzilma loyihalari amalga oshirilmoqda. Raqamli to'lovlar tizimini kengaytirish, elektron xizmatlardan foydalanish madaniyatini oshirish va aholining texnologik savodxonligini yuksaltirish raqamli iqtisodiyotning to'liq ishlashiga zamin yaratmoqda.

Shuningdek, axborot-kommunikatsiya sohasiga investitsiyalarni ko'paytirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va ilg'or texnologiyalarni joriy etish orqali O'zbekistonning global raqamli maydondagi mavqeini yanada mustahkamlash kutilmoqda. Bu borada davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, innovatsion startaplarni qo'llab-quvvatlash dasturlari va xorijiy tajriba almashinuvi muhim o'rin tutadi.

Bundan tashqari, malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish, ilmiy-tadqiqot faoliyatini kuchaytirish va mahalliy IT-kompaniyalar raqobatbardoshligini oshirish orqali axborot-kommunikatsiya xizmatlarini yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Ushbu yondashuvlar raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi, innovatsion yechimlarning keng joriy etilishi hamda mamlakat iqtisodiy o'sish sur'atlarining jadallashuviga xizmat qiladi (1-jadval).

1-jadval. Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi (mlrd.so'm)

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023-yilda/ 2022-yilga nisbatan o'zgarish, %da
Axborot va aloqa	5181,5	6306,8	8196,7	10332,6	10891,7	13852,3	17755,1	24508,1	35261,9	143,9
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	8206,7	9898,4	15023,8	21296,3	34036,6	45783	59733,3	80849,1	107290,6	132,7
Tashish va saqlash	26817,3	30617,8	36217,2	44159,4	54473,5	53662,9	67202,9	83985,6	50395,9	60,0
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	890,6	3038,7	3649,6	4673,3	5933,6	5431,7	8375,4	13115,6	19343	147,5
Ulgurji va chakana savdo; motorli trans-port vositalari va mototsikl-larni ta'mirlash	21366,9	27368,2	32006,9	39743,4	48748,2	57572,7	72483,2	89816,2	111201,6	123,8



Ko'chmas mulk bilan operatsiyalar	2757,3	3405,1	4026,5	4949,2	5950,7	6016,9	8081,1	9581,7	11992,6	125,2
Ta'lim	2681,4	3263	4402	5416,5	7164,9	8539,4	12102,6	15858,4	20472,7	129,1
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1100,4	1416,3	1701,5	2220	3104,3	3386,7	5105,9	6613,1	8621,7	130,4
Ijara va lizing bo'yicha xizmatlar	1801,6	2270,1	2589,2	3297,4	3733,5	4149	5351	6471,7	7381,6	114,1
Kompyuterlar, shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1724,5	2187,8	2329,2	2630,7	3200,1	3347,8	4680,5	5707,3	6932,5	121,5
Shaxsiy xizmatlar	2366,5	2915,5	3134,4	3700,6	4575,6	5032,2	6799,8	8670,8	10916,1	125,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	841	1132,6	1611,7	2953,6	4543,1	4907,5	6306,8	7284,2	8497,3	116,7
boshqa xizmatlar	2794,7	3229,7	3922,3	5516,8	7342	8296,4	10410,5	14429,2	21468,1	148,8

Iqtisodiy faoliyatning asosiy turlari bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2023-yilda 2022-yilga nisbatan sezilarli darajada oshdi. Xususan, axborot va aloqa sohasidagi xizmatlar hajmi 1,44 barobarga o'sib, 35 261,9 milliard so'mni tashkil etdi. Ushbu o'sishning asosiy sababi sifatida respublika miqyosida aloqa infratuzilmasining jadal rivojlanishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi hamda aholining internet va mobil xizmatlarga bo'lgan talabi ortgani qayd etiladi.

Moliya xizmatlari hajmi ham so'nggi yillarda keskin oshgan: 2015-yilda 8 206,7 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilga kelib bu ko'rsatkich 107 250,6 milliard so'mga yetgan. Natijada so'nggi to'qqiz yil ichida moliya sektori hajmi qariyb 13 barobarga oshgan. Bunday o'sishga moliyaviy texnologiyalar (fintech) rivojlanishi, elektron to'lov tizimlari joriy etilishi va bank xizmatlari raqamlashtirilgani sabab bo'lgan.

Transport xizmatlari hajmi ham sezilarli darajada kengaydi — 2015-yilda 26 217,3 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yilda bu ko'rsatkich 50 395,9 milliard so'mga yetdi. Demak, transport sohasidagi xizmatlar hajmi 2015-yilga nisbatan 1,9 barobarga o'sgan. Ushbu o'sishning asosiy omillari sifatida qo'shni davlatlarga xalqaro aviareyslarning yo'lga qo'yilishi, tez yurar poyezdlarning ishga tushirilishi va transport-logistika infratuzilmasining kengaytirilishi keltiriladi.

Shuningdek, axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori sohasida ham barqaror o'sish kuzatilmoqda. Agar 2015-yilda ushbu soha hajmi 3 876,3 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga kelib u 43 106,4 milliard so'mgacha yetgan. Demak, 2015–2023-yillar davomida soha hajmi qariyb 11,1 barobarga oshgan. Bu natija O'zbekistonda elektron savdo, onlayn to'lovlar, raqamli marketing va elektron xizmatlar infratuzilmasining izchil rivojlanayotganidan dalolat beradi (2-jadval).



2-jadval. Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sohaslarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi

Ko'rsatkichlar	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2023-yilda 2022-yilga nisbatan % da
Axborot iqtisodiyoti va elektron tijorat sektori	3 876,3	4 967,7	7065,5	8526,1	9434	11939,3	18543,8	29969,2	43106,4	143,8
Axborot kommunikatsiya texno-logiyalari (AKT) sektori	3 581,7	4 575,3	6501,6	7615,1	8208,1	10157,1	13012,3	18172	26463,9	145,6
Shu jumladan:										
AKT ishlab chiqarish	141,7	127,2	238,3	301,9	279,4	540,1	503,3	820,3	1161,2	141,6
AKT savdosi	140,8	228,0	361,3	299,3	370,3	306,5	454,3	691,3	782,9	113,3
AKT xizmatlari	3 299,2	4 220,1	5902	7013,9	7558,5	9310,5	12054,7	16660,3	24519,8	147,2
Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari	294,6	392,4	553,7	805,8	965,9	1190,8	1624,2	2103,2	2723,6	129,5
Elektron tijorat	-	-	10,1	105,2	260,0	591,4	3 907,3	9694	13918,9	143,6

Barchamizga ma'lumki, bugungi kunda dunyo miqyosida turli sohalarda axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish yo'lga qo'yilgan bo'lib [3], ularsiz zamonaviy jamiyatni tasavvur etish mushkul. Davlat boshqaruvi tizimiga zamonaviy axborot texnologiyalarini keng joriy etish va telekommunikatsiya tarmoqlarini [2] kengaytirish orqali mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini yanada oshirish maqsadida axborot iqtisodiyoti hamda elektron tijorat sektori jadal rivojlanmoqda.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu soha 2015-yilda yalpi ichki mahsulot tarkibida 1,9 foiz ulushga ega bo'lgan bo'lsa, 2023-yil yakuniga kelib bu ko'rsatkich 3,8 foizni tashkil etdi, ya'ni 2015–2023-yillar davomida 1,9 birlikka oshdi. 2015-yilda kontent sektori va ommaviy axborot vositalari xizmatlarining ulushi 0,1 foizni tashkil etgan, elektron tijorat esa deyarli shakllanmagan edi. 2023-yil yakuniga kelib esa bu ko'rsatkichlar sezilarli darajada o'zgardi: AKT sektori ulushi 0,5 foiz punktga oshib, 2,3 foizni tashkil etdi. Shundan AKT ishlab chiqarish – 0,1 foiz, AKT savdosi – 0,1 foiz, AKT xizmatlari esa 2,1 foiz ulushni egalladi. Kontent sektori va ommaviy axborot vositalari xizmatlari ulushi 0,2 foizga teng bo'ldi. Elektron tijorat sohasida esa sezilarli o'sish kuzatilib, 2015-yildagi 0 foiz ko'rsatkich 2023-yilda 1,2 foizga yetdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Axborot-kommunikatsiya xizmatlari sohasi O'zbekistonda so'nggi yillarda jadal rivojlanib, raqamli iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Soha infratuzilmasining kengayishi, yuqori tezlikdagi internet va mobil aloqa xizmatlarining qamrovi ortishi, shuningdek, "Elektron hukumat" tizimining rivojlanishi davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish, biznes jarayonlarini soddalashtirish va aholiga ko'rsatiladigan xizmatlarning qulayligini ta'minlashga xizmat qilmoqda [7].

Kelgusida sohaning iqtisodiyotdagi ulushini yanada oshirish, xalqaro reytinglardagi o'rnini mustahkamlash hamda hududlar o'rtasidagi xizmat sifati va qamrov darajasini muvozanatlashtirish asosiy ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib qolmoqda. Raqamli xizmatlardan foydalanish ko'lamini kengaytirish, malakali mutaxassislar tayyorlashni jadallashtirish, investitsiya muhitini yaxshilash va innovatsion yechimlarni kengroq tatbiq etish orqali sohaning raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirish imkoniyati mavjud.

Umuman olganda, O'zbekiston axborot-kommunikatsiya xizmatlarini rivojlantirishda barqaror va natijador yondashuvni qo'llab, global raqamli iqtisodiyot talablariga mos holda yangi bosqichga kirib bormoqda [6]. Yaqin istiqbolda kompleks va tizimli chora-tadbirlarni izchil amalga oshirish mamlakatning raqamli transformatsiya jarayonini tezlashtirib, innovatsion salohiyatni to'liq ishga solish va axborot-kommunikatsiya sohasida barqaror o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh. Gulyamov, D. Muminov. Experience of Development of Digital Technologies in Uzbekistan. E3S Web of Conferences, 2023. – Vol. 422. – P. 03040.
2. I.Z. Rasulovich. Enhancing the Efficiency of Digital Services in Uzbekistan's Telecommunications Sector. Central Asian Journal of Innovations on Technological Management and Finance, 2024. – Vol. 5(2). – P. 45–53.



3. OECD. Digital Skills for Private Sector Competitiveness in Uzbekistan. OECD Publishing, Paris, 2023. – 68 p.
4. World Bank. Uzbekistan – Digital Economy Development and IT Sector Competitiveness Report. Washington, D.C.: World Bank Group, 2023. – 72 p.
5. A. Khakimov, B. Juraev. The Growth of ICT Indicators in the Digital Economy of Uzbekistan. Economics, Research and Business Journal, 2024. – Vol. 9(1). – P. 115–124.
6. Ministry of Digital Technologies of the Republic of Uzbekistan. Digital Uzbekistan – 2030 Strategy. Tashkent, 2020. – 112 p.
7. A. Kadirov, M. Rakhimova. Predictive Analysis of ICT Service Exports within the Logistics Sector: A Case Study Pertaining to Uzbekistan. ResearchGate Publications, 2024. – 14 p.
8. UNDP. Digital Economy of Uzbekistan: The State of Digital Entrepreneurship to Harness AI. Tashkent: United Nations Development Programme, 2025. – 85 p.
9. Tadviser Analytics Group. ICT Market of Uzbekistan: Structure and Development Trends. Moscow: Tadviser, 2024. – 64 p.
10. A. Yuldashev, N. Ergasheva. Prospects for Digital Uzbekistan 2030. Web of Conferences Journal, 2023. – Vol. 7(4). – P. 201–210.
11. O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi saytida keltirilgan ma'lumotlar.
12. Amity.uz saytidagi O'zbekiston axborot-kommunikatsiya xizmatlarining rivojlanishiga oid tahlil materiallari.
13. Daryo.uz, O'zbekiston axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida olib borilayotgan islohotlar haqidagi maqolalar.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 10

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
